**SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 17-yanvar | 27-8-111-Q/25 | Denov tuman hokimligi

## Denov tumani hokimligi qoshida “Yoshlar sayilgohi va maishiy xizmat ko‘rsatish markazi” xo‘jalik hisobidagi Direksiyasi tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-apreldagi “2020-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-4667-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-dekabrdagi “Surxondaryo viloyati kompleksi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-438-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev huzuridagi 2022-yil 17-18-oktabr kunlari o‘tkazilgan Respublika darajasidagi muhim ahamiyatiga ega ayrim obyektlar qurilishi hamda istiqbolli loyihalar taqdimotlari davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha o‘tkazilgan 73-sonli yig‘ilish bayoni qarorining 18-bandini ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Denov tumani hokimligi qoshida “Yoshlar sayilgohi va maishiy xizmat ko‘rsatish markazi” xo‘jalik hisobidagi Direksiyasi tashkil etilsin.

2. Tuman hokimligi tashkiliy nazorat guruhi (G‘.Baratov)ga direksiya rahbari lavozimiga munosib nomzodlarni ko‘rib chiqib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Direksiya rahbariga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

-yangi tashkil etilgan Direksiya Nizomini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

- Direksiyani qonunda belgilangan tartibda loyiha smeta hujjatlari asosida olib borilishini ta’minlash;

-tuman hokimligi bilan kelishgan holda shtatlar jadvali asosida xodimlarni ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish vazifalari yuklatilsin.

4. Hududda joylashgan savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalaridan belgilangan tartibda kelib tushgan mablag‘lar hisobidan qurilish ta’mirlash ishlarini amalga oshirish, moddiy barqaror rivojlanishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilishni tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov va tuman hokimining o‘rinbosari F.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **I.Abrorov**